

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'ZBEKISTONDA TARIXIY SHAHARLAR TURIZMINING RIVOJLANISHI VA XALQARO HAMKORLIK

Murodov Halim

Osiyo xalqaro universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: murodovhalim645@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-5564-8531>

Annotatsiya.

Maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda, xususan, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida turizmning rivojlanishi xalqaro hamkorlik va metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tarixiy-madaniy merosdan foydalanish, Buyuk Ipak yo'li konsepsiyasi, UNESCO, xalqaro turizm tashkilotlari, Samarqand, Xiva va Buxoro deklaratsiyalari, TRACECA hamda iqtisodiy-tarixiy, ijtimoiy-tarixiy va hududiy-lokal yondashuvlarning ahamiyati va O'zbekiston turizmi rivojiga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, turizm tarixi, tarixiy shaharlar, Samarqand, Buxoro, Xiva, Buyuk Ipak yo'li, xalqaro hamkorlik, UNESCO, UNWTO, TRACECA, madaniy meros, iqtisodiy-tarixiy yondashuv, ijtimoiy-tarixiy yondashuv, hududiy-lokal yondashuv.

O'ZBEKISTONDA TARIXIY SHAHARLAR TURIZMINING RIVOJLANISHI VA XALQARO HAMKORLIK

Муродов Халим

Азиатский международный университет, доцент (PhD).

Аннотация.

В статье анализируется развитие туризма в Узбекистане в годы независимости, в частности в исторических городах Самарканде, Бухаре и Хиве, с точки зрения международного сотрудничества и методологических подходов. Освещаются использование историко-культурного наследия, концепция Великого шёлкового пути, деятельность UNESCO и международных туристских организаций, Самаркандская, Хивинская и Бухарская декларации, TRACECA, а также значение экономико-исторического, социально-исторического и территориально-локального подходов и их влияние на развитие туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: Узбекистан, история туризма, исторические города, Самарканд, Бухара, Хива, Великий шёлковый путь, международное сотрудничество, UNESCO, UNWTO, TRACECA, культурное наследие, экономико-исторический подход, социально-исторический подход, территориально-локальный подход.

DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN'S HISTORIC CITIES AND INTERNATIONAL COOPERATION

Murodov Halim

Asia International University, Associate Professor (PhD).

Abstract.

The article analyzes the development of tourism in Uzbekistan during the years of independence, particularly in the historic cities of Samarkand, Bukhara, and Khiva, from the perspectives of international cooperation and methodological approaches. It examines the use of historical and cultural heritage, the Great Silk Road concept, UNESCO and international tourism organizations, the Samarkand, Khiva, and Bukhara Declarations, TRACECA, as well as the significance of economic-historical, socio-historical, and territorial-local approaches and their impact on the development of tourism in Uzbekistan.

Keywords: Uzbekistan, history of tourism, historic cities, Samarkand, Bukhara, Khiva, Great Silk Road, international cooperation, UNESCO, UNWTO, TRACECA, cultural heritage, economic-historical approach, socio-historical approach, territorial-local approach.

Kirish. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida xalqaro turizm nafaqat iqtisodiy faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri, balki davlatlar o'rtasidagi madaniy, ilmiy va ijtimoiy aloqalarni rivojlantiruvchi muhim vositaga aylandi. Ayniqsa, tarixiy shaharlar va madaniy meros obyektlari asosida turizmni rivojlantirish davlatlarning xalqaro imijini shakllantirish, tarixiy xotirani saqlash va milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston uchun ushbu jarayon alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki mamlakat hududida Samarqand, Buxoro va Xiva kabi jahon sivilizatsiyasi tarixida muhim o'rin tutgan shaharlarning mavjudligi turizmni rivojlantirish uchun

katta tarixiy-madaniy salohiyat yaratdi. Mustaqillikdan keyin mazkur salohiyatdan xalqaro turizmni rivojlantirish maqsadida foydalanish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekistonning xalqaro turizm tizimiga integratsiyalashuvida Buyuk Ipak yo'li konsepsiyasining qayta tiklanishi ham muhim omil bo'ldi. Qadimda Sharq va G'arbni bog'lagan savdo va madaniy aloqalar tizimi zamonaviy davrda turizm, transport, madaniy almashinuv va xalqaro hamkorlikning tarixiy-geografik asosi sifatida qayta talqin qilindi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda turizmning shakllanish va rivojlanish tarixini faqat turistlar sonining o'zgarishi yoki turistik infratuzilmaning kengayishi orqali emas, balki xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, tarixiy-madaniy merosni saqlash, hududiy rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq holda tadqiq etish zarur. Ushbu izlanishimizning asosiy maqsadi mustaqillik davrida O'zbekistonda tarixiy shaharlar turizmining rivojlanishida xalqaro hamkorlikning o'rnini aniqlash hamda mazkur jarayonni tadqiq etishda qo'llaniladigan metodologik yondashuvlarning ilmiy imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotda turizm tarixini kompleks o'rganishga imkon beruvchi uchta asosiy:

1. Iqtisodiy-tarixiy yondashuv;
2. Ijtimoiy-tarixiy yondashuv;
3. Hududiy-lokal yondashuvdan foydalaniladi.

Bu borada birinchidan, iqtisodiy-tarixiy yondashuv turizmni tarixiy shakllangan iqtisodiy tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Bunda mehmonxona xo'jaligi, transport, umumiy ovqatlanish, savdo, hunarmandchilik, investitsiya va xizmat ko'rsatish sohalarining turizm rivoji bilan o'zaro bog'liqligi hisobga olinadi. Bu yondashuvning nazariy asoslari yangi davrda ingliz olimi Adam Smitning "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari haqida tadqiqot" ("An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations", 1776) [1] asarida bozor iqtisodiyoti, mehnat taqsimoti va xizmatlar almashinuvi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili ekanligini asoslab berilgan. Bu yondashuvning asoslanishiga Jon Maynard Keynesning multiplikator nazariyasi ham muhim hissa qo'shdi. Uning qarashlariga ko'ra [2], iqtisodiyotning bir sohasiga yo'naltirilgan investitsiya boshqa tarmoqlarda ham iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, ya'ni turizm sohasida mehmonxona, transport, ovqatlanish, hunarmandchilik va savdo xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi yangi ish o'rinlari va qo'shimcha daromadlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun turizm iqtisodiyotda multiplikativ ta'sir ko'rsatuvchi tarmoqlardan biri sifatida baholanadi. Shuningdek, iqtisodiy-tarixiy yondashuvning zamonaviy metodologik asoslaridan yana biri Jahon Turizm Tashkiloti (UN Tourism) tomonidan ishlab chiqilgan — "Turizmning yordamchi hisoblari" metodologiyasi bo'lib [3], bu bilan turizmning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini va tarixiy dinamikasi hamda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kabilar aniqlanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy-tarixiy yondashuv turizmni insonlar o'rtasidagi ijtimoiy va madaniy munosabatlarning bir shakli sifatida ko'rib chiqadi. Bu yondashuv orqali turistlar oqimi, mahalliy aholi, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar, madaniy almashinuv va tarixiy-madaniy merosning jamiyatdagi o'rnini o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Ushbu yondashuvning nazariy asosi Maks Veberning "Iqtisodiyot va jamiyat" ("Wirtschaft und Gesellschaft") [4] nomli asari bilan bog'liq bo'lib, unga ko'ra, inson faoliyati iqtisodiy manfaatlar bilan bir qatorda madaniy qadriyatlar, diniy qarashlar va ijtimoiy motivlar ta'sirida shakllanadi. Turizm ham insonlarning madaniy ehtiyojlari, tarixiy merosga qiziqishi hamda ijtimoiy aloqalari bilan bog'liq ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuvni fransuz sotsiologi Emil Durkxeymning jamiyat institutlari va ijtimoiy birdamlik haqidagi qarashlariga ko'ra [5], turizm tarixiy-madaniy merosni saqlash, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish va xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, hududiy-lokal yondashuv esa turizmning rivojlanishini muayyan tarixiy-geografik makon xususiyatlari bilan bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv ayniqsa Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarni qiyosiy o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Chunki mazkur shaharlarning har biri tarixiy merosi, geografik joylashuvi, me'moriy qiyofasi, iqtisodiy faoliyati va turistik infratuzilmasi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Hududiy-lokal tahlilda mazkur yondashuvning nazariy asoslari fransuz geografi Pol Vidal de la Blash tomonidan ishlab chiqilgan hududlarni alohida tarixiy-geografik birlik sifatida o'rganish konsepsiyasi bilan bog'liqdir. Olimning fikricha [7], har bir hudud tabiiy sharoiti, tarixiy taraqqiyoti va inson faoliyati ta'sirida shakllangan o'ziga xos makon hisoblanadi. Shu sababli Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari o'zining tarixiy merosi, me'moriy obidalari va turistik infratuzilmasi bilan O'zbekistonning alohida turistik hududlari sifatida shakllangan. Hududiy-lokal yondashuvga Valter Kristallerning markaziy o'rinlar nazariyasi ham muhim asos bo'lib, unga ko'ra, ayrim shaharlar o'z atrofidagi hududlar uchun xizmat ko'rsatish markaziga aylanadi. Shu jumladan, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari tarixiy jihatdan savdo, madaniyat, ziyorat va xizmat ko'rsatish markazlari sifatida hozirda ham sayyohlar oqimini o'ziga jalb qiluvchi markaziy hududlar sifatida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, hududiy-lokal yondashuvda Richard Butler tomonidan 1980-yilda ishlab chiqilgan "Turistik hudud evolyutsiyasi konsepsiyasi" [8] ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, turistik hududlar kashf etilish, rivojlanish, ommalashish, barqarorlik (sekinlashish) va yangilanish kabi bosqichlarni bosib o'tadi. Mazkur konsepsiya asosida arxiv manbalari, statistika va boshqa ilmiy hamda joriy ma'lumotlarni o'rganish natijasida Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari turizmining 1991–2024-yillardagi shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tarixiy jihatdan tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Buyuk Ipak yo'li konsepsiyasining zamonaviy turizm rivojidagi muhim o'rnini alohida qayd etish lozimdir. Mustaqillikdan keyin O'zbekistonning xalqaro turizm tizimiga kirib borishida tarixiy Buyuk Ipak yo'li konsepsiyasining qayta tiklanishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bunda qadimgi savdo yo'llari nafaqat tarixiy hodisa, balki zamonaviy turizm, madaniy almashinuv va xalqaro transport aloqalarining konseptual asosi sifatida talqin qilina boshlandi. Yangi Ipak yo'li g'oyasining amaliy yo'nalishlaridan biri Yevropa–Kavkaz–Osiyo transport yo'lagi — TRACECA loyihasi bo'ldi. Ushbu loyiha Markaziy Osiyo, Kavkaz va Yevropa o'rtasidagi transport aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, tarixiy Ipak

yo'lining zamonaviy kommunikatsiya tizimidagi mazmuniy davomiyligi sifatida qaralishi mumkin. O'zbekistonning xalqaro madaniy va ilmiy hamkorligida 1995-yilda Samarqandda UNESCO shafeligida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti — IICAS tashkil etilishi ham muhim voqea bo'ldi. Institutning faoliyati Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy merosini, xususan, Ipak yo'li bo'ylab joylashgan tarixiy yodgorliklarni o'rganish va xalqaro ilmiy jamoatchilikka targ'ib etishga xizmat qildi. Mazkur jarayon Samarqand, Buxoro va Xivaning turistik salohiyatini faqat milliy miqyosda emas, balki xalqaro madaniy makon doirasida baholash imkoniyatini yaratdi.

O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish tarixida 1994-yil 5-oktyabrda Samarqandda qabul qilingan "Ipak yo'li turizmi bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi" alohida ahamiyatga ega [9]. Mazkur hujjatning qabul qilinishi Ipak yo'li hududlarida turizmni rivojlantirishni xalqaro hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Samarqandning bunday xalqaro tadbirga mezbonlik qilishi shaharning tarixiy maqomi va turistik salohiyatining xalqaro darajada e'tirof etilganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, Samarqand deklaratsiyasi Ipak yo'li bo'ylab joylashgan davlatlarning turizm sohasidagi hamkorligini kuchaytirish uchun institutsional asoslardan biri bo'ldi. Bu jarayon O'zbekistonning xalqaro turizm tashkilotlari bilan hamkorligini mustahkamlashga xizmat qildi. Xalqaro turizm tashkilotlarining faoliyati doirasida Samarqand, Buxoro va Xivaning tarixiy-madaniy merosi xalqaro turistik yo'nalishlarning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'la boshladi. 2004-yilda Samarqandda Jahon turizm tashkilotining "Ipak yo'li turizmi idorasi" tashkil etilishi ham ushbu jarayonning mantiqiy davomi bo'ldi [10]. Mazkur tuzilmaning tashkil etilishi Samarqandning Ipak yo'li turizmini rivojlantirishdagi xalqaro markazlardan biri sifatidagi mavqeyini kuchaytirdi.

Xalqaro hamkorlikning keyingi bosqichida Xiva va Buxoro shaharlarida o'tkazilgan xalqaro tadbirlar muhim o'rin tutdi. 1999-yil 21-aprelda Xivada turizm va madaniy merosni muhofaza qilish masalalariga bag'ishlangan "Xiva deklaratsiyasi" qabul qilindi [11]. Mazkur hujjat tarixiy shaharlarning turistik salohiyatidan foydalanish bilan birga, ularning madaniy merosini asrash zarurligini xalqaro kun tartibiga olib chiqdi. Bu jihatdan Xiva tajribasi tarixiy shaharlar turizmini rivojlantirishda "merosni saqlash — turizmni rivojlantirish" tamoyilining shakllanishini ko'rsatadi. Ya'ni tarixiy obidalarni turizmning iqtisodiy resursiga aylantirish ularni muhofaza qilish mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilishi lozim. 2002-yil 27-oktyabrda Buxoroda o'tkazilgan Ipak yo'li bo'yicha to'rtinchi xalqaro uchrashuv doirasida "Buxoro deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi [12] ham O'zbekistonning xalqaro turizm hamkorligidagi mavqeyini mustahkamladi. Samarqand, Xiva va Buxoroda o'tkazilgan xalqaro tadbirlarni birgalikda tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O'zbekiston tarixiy shaharlarni xalqaro turizm makoniga integratsiyalash uchun madaniy meros va Ipak yo'li konsepsiyasidan faol foydalangan.

Tarixiy shaharlar turizmini tadqiq etishda iqtisodiy-tarixiy yondashuvning qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Samarqand, Buxoro va Xiva turizmining rivojlanishini iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qilish ushbu shaharlarning turizm infratuzilmasidagi o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Mustaqillikning dastlabki bosqichida turizm infratuzilmasi asosan mavjud moddiy bazaga tayangan bo'lsa, keyingi davrlarda mehmonxonalar, transport xizmatlari, umumiy ovqatlanish, savdo va hunarmandchilik subyektlari sonining ko'payishi kuzatildi.

Iqtisodiy-tarixiy yondashuv doirasida turizmning rivojlanishini uch darajada ko'rib chiqish mumkin:

birinchidan, turizmning bevosita iqtisodiy natijalari — turistlar soni, xizmatlar hajmi, daromad va investitsiyalar;

ikkinchidan, turizm bilan bog'liq tarmoqlarning rivojlanishi — transport, mehmonxona, ovqatlanish, savdo va hunarmandchilik;

uchinchidan, turizmning hududiy iqtisodiyotga ta'siri — yangi ish o'rinlari, xizmatlar bozorining kengayishi va tarixiy shaharlarda iqtisodiy faollikning kuchayishi.

Shu jihatdan turizmni alohida xizmat ko'rsatish sohasi sifatida emas, balki ko'plab iqtisodiy faoliyat tarmoqlarini birlashtiruvchi kompleks tizim sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-tarixiy yondashuv va turizmning jamiyatdagi o'rniga e'tibor qaratamiz. Turizmning rivojlanishini faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan baholash tarixiy jarayonning ijtimoiy mazmunini to'liq ochib bera olmaydi. Shu sababli turizm tarixini o'rganishda ijtimoiy-tarixiy yondashuv alohida ahamiyatga ega. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarda turizmning rivojlanishi mahalliy aholi, tadbirkorlar, hunarmandlar, gidlar, transport va mehmonxona xodimlari hamda xorijiy sayyohlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarning kengayishiga olib keldi. Bundan tashqari, xorijiy turistlarning tarixiy obidalarga tashrifi madaniy almashinuv jarayonlarini kuchaytirdi. Mahalliy tarixiy-madaniy qadriyatlarining xalqaro miqyosda targ'ib qilinishi milliy merosning turizm vositasida ommalashuviga xizmat qildi. Shu ma'noda turizmni madaniy diplomatiyaning bilvosita vositalaridan biri sifatida ham baholash mumkin. Tarixiy shaharlar orqali mamlakatning tarixi, me'morchiligi, an'analari, hunarmandchiligi va madaniy merosi xalqaro auditoriyaga namoyish etildi.

Hududiy-lokal yondashuv asosida Samarqand, Buxoro va Xiva turizmi O'zbekistonning tarixiy shaharlarida turizm rivojlanishi bir xil kechmagan. Bunga ularning tarixiy funksiyasi, geografik joylashuvi, madaniy meros obyektlari tarkibi, transport imkoniyatlari va infratuzilmasi kabi omillar ta'sir ko'rsatgan. Samarqand xalqaro miqyosda Ipak yo'li, Temuriylar davri merosi va yirik me'moriy majmualari bilan ajralib turadi. Shaharning xalqaro ilmiy va turistik tadbirlarga mezbonlik qilishi uning turizm markazi sifatidagi mavqeyini mustahkamladi. Buxoro esa tarixiy diniy-ma'rifiy markaz, qadimiy savdo shahri va me'moriy meros maskani sifatida o'ziga xos turistik modelga ega bo'ldi. Shaharning tarixiy markazi, madrasalari, masjidleri, maqbaralari va an'anaviy hunarmandchiligi turizm resurslarining asosiy qismini tashkil etdi. Xivaning turistik qiyofasi esa, avvalo, yaxlit tarixiy shahar muhiti va Ichan qal'a bilan bog'liq. Shu sababli Xivada turizmni rivojlantirish tarixiy shahar makonini asrash bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Demak, uch shaharni yagona "tarixiy turizm markazi" sifatida umumlashtirish bilan bir qatorda, ularning individual rivojlanish modellarini ham ajratib ko'rsatish zarur.

Turistik hududlarning evolyutsiyasini tushuntirishda Richard Butler tomonidan 1980-yilda ilgari surilgan

“Turistik hudud evolyutsiyasi konsepsiyasi” muhim nazariy imkoniyatlardan biridir [13]. Butler konsepsiyasi asosida tarixiy shaharlar turizmining rivojlanishi va uning asosiy bosqichlari aniqlanib, turizmni rivojlantirish istiqbollari belgilandi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, turistik hududlar odatda kashf etilish, rivojlanish, ommalashish, barqarorlashuv va yangilanish kabi bosqichlarni boshdan kechiradi. Ushbu modelni O'zbekistonning tarixiy shaharlari turizmi tarixiga mexanik tarzda tatbiq etish emas, balki tarixiy manbalar va statistik ma'lumotlar bilan qiyoslagan holda foydalanish maqsadga muvofiq.

1991–2024-yillarni shartli ravishda bir necha bosqichda tahlil qilish mumkin. Mustaqillikning dastlabki davri turizmning institutsional va huquqiy asoslari shakllangan bosqich sifatida namoyon bo'lsa, keyingi davrda xalqaro hamkorlik, infratuzilma va xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi kuzatildi. 2017-yildan keyingi davrda esa turizm davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunday bosqichlarga ajratish turizm rivojlanishining faqat miqdoriy emas, balki institutsional va sifat jihatlarini ham tahlil qilish imkonini berdi.

Tahlillar asosida O'zbekistonda tarixiy shaharlar turizmining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni tarixiy-madaniy omillar bo'lib, bunda Samarqand, Buxoro va Xivaning jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o'rni, me'moriy obidalar va nomoddiy merosi ularning turistik salohiyatining asosiy negizidir. Ikkinchi guruh — xalqaro omillar bo'lib, UNESCO, UNWTO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tarixiy shaharlarning xalqaro turizm tizimidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qildi. Uchinchi guruh — transport va infratuzilma bilan bog'liq omillar katta ahamiyat kasb etib, bu borada TRACECA kabi xalqaro transport tashabbuslari Markaziy Osiyoning Yevropa va boshqa hududlar bilan aloqalarini kuchaytirish uchun muhim imkoniyat yaratdi. To'rtinchi guruh — davlat siyosati va huquqiy omillar. Mustaqillikdan keyin davlat tomonidan turizmni rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu esa turizm sohasining rivojlanishiga xizmat qildi. Beshinchi guruh — ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Turizm xizmat ko'rsatish, savdo, hunarmandchilik, transport va mehmonxona sohaslarining rivojlanishiga turtki berib, tarixiy shaharlarda yangi ish o'rinlari va iqtisodiy imkoniyatlarning paydo bo'lishiga xizmat qildi. Shu asosda O'zbekiston tarixiy shaharlarida turizmning rivojlanishini uch asosiy omilning o'zaro bog'liqligi orqali tushuntirish mumkin: birinchidan, tarixiy merosni asrash va undan foydalanish, ikkinchidan, xalqaro hamkorlik va targ'ibotni rivojlantirish, uchinchidan, turizmning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini kuchaytirish hisoblanadi. Ushbu jarayonni o'zaro bog'liq rivojlanish zanjiri quyidagilardir:

1. Tarixiy meros — turizmning asosiy resursi bo'lib, me'moriy yodgorliklar, UNESCO obyektlari, muzeylar va diniy qadamjolarini o'z ichiga oladi.
2. Xalqaro hamkorlik va targ'ibot — tarixiy merosni xalqaro miqyosda tanitish, milliy turistik brendlarni shakllantirish, raqamli marketing, xalqaro tadbirlar va turistik aloqalarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.
3. Sayyohlar oqimining oshishi — tarixiy merosning keng targ'ib qilinishi natijasida mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimi ko'payadi hamda turizm xizmatlaridan tushadigan daromad ortadi.
4. Iqtisodiy rivojlanish — turizm daromadlarining mehmonxona, restoran, transport, hunarmandchilik va boshqa xizmatlar rivojiga yo'naltirilishi yangi ish o'rinlari yaratilishi va mahalliy iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qiladi.
5. Tarixiy merosni qayta tiklash va raqamlashtirish — turizm rivojidan olingan daromadlarning bir qismi tarixiy obyektlarni restavratsiya qilish, ularni saqlash hamda VR, 3D va boshqa raqamli texnologiyalarni joriy etishga yo'naltiriladi.
6. Turistik jozibadorlikning oshishi — yangilangan, yaxshi saqlangan va zamonaviy texnologiyalar orqali targ'ib qilinayotgan tarixiy meros sayyohlar uchun yanada jozibador bo'ladi.
7. Barqaror rivojlanish — shu jarayonning takrorlanishi tarixiy merosni asrash, xalqaro turizmni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish o'rtasida uzviy bog'liqlikni shakllantirib, tarixiy shaharlar turizmining barqaror rivojlanishiga olib keladi. Biroq ushbu jarayonni faqat turizmning iqtisodiy manfaatlarini nuqtayi nazaridan baholash yetarli emas. Tarixiy shaharlar uchun madaniy merosni muhofaza qilish, turizm oqimlarini boshqarish, tarixiy shahar makonining bus-butunligini saqlash va mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish juda muhim hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, mustaqillik davrida O'zbekistonda turizmning rivojlanishi tarixiy-madaniy meros, xalqaro hamkorlik, davlat siyosati va hududiy-iqtisodiy jarayonlarning o'zaro ta'siri asosida shakllandi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarining xalqaro turizm tizimiga integratsiyalashuvida Buyuk Ipak yo'li konsepsiyasi muhim tarixiy va institutsional asos bo'lib xizmat qildi. Samarqand deklaratsiyasi, Xiva deklaratsiyasi va Buxoro deklaratsiyasi kabi xalqaro hujjatlar O'zbekiston tarixiy shaharlarining xalqaro turizm makonidagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qilgan muhim tarixiy voqealar sifatida baholanishi mumkin. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda turizm tarixini o'rganishda bitta metodologik yondashuv bilan cheklanib qolish ilmiy jarayonning murakkabligini to'liq ochib bera olmaydi. Iqtisodiy-tarixiy yondashuv turizmning iqtisodiy mexanizmlarini, ijtimoiy-tarixiy yondashuv turizmning jamiyat va madaniy munosabatlarga ta'sirini, hududiy-lokal yondashuv esa tarixiy shaharlarning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli Samarqand, Buxoro va Xiva turizmi tarixini qiyosiy o'rganishda mazkur uch yondashuvning integratsiyasi metodologik jihatdan samarali hisoblanadi. Bunday kompleks yondashuv O'zbekistonda turizmning 1991–2024-yillardagi rivojlanish jarayonlarini nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki tarixiy, ijtimoiy, madaniy va hududiy omillar birligi asosida baholash imkonini beradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda tarixiy shaharlar turizmini rivojlantirish va madaniy merosni muhofaza qilish o'rtasidagi nisbat, turizmning mahalliy aholi hayotiga ta'siri, turistik oqimlarning hududiy taqsimoti hamda xalqaro hamkorlikning uzoq muddatli natijalarini qiyosiy-statistik tahlil qilish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776. – 540 p. – Elektron manba. – <http://gesd.free.fr/smith76bis.pdf>.
2. Keynes J. M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. – London: Macmillan, 1936. – 403 p. – Elektron manba. – https://www.files.ethz.ch/isn/125515/1366_keynestheoryofemployment.pdf.
3. UN Tourism. *Bringing the World Closer* [Elektron manba]. – UN Tourism rasmiy sayti . <https://www.untourism.int/>
4. Weber M. *Wirtschaft und Gesellschaft* [Iqtisodiyot va jamiyat]. – Tübingen, 1922. – Elektron manba. – <https://cdn.mohrsiebeck.com/4d,bde8e1738645a583cc6f6d2cb0d0d7.pdf>.
5. Durkheim É. *The Division of Labour in Society* [Jamiyatda mehnat taqsimoti]. – New York: Free Press, 1964. – 439 p. – Elektron manba. – <https://ia601408.us.archive.org/14/items/in.ernet.dli.2015.233884/2015.233884.The-Division.pdf>
6. Vidal de la Blache P. *Principes de géographie humaine*. – Paris, 1922. – 327 p. – Elektron manba. – <https://ia801400.us.archive.org/10/items/principesdegogra00vida/principesdegogra00vida.pdf>
7. Butler R. W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources // *Canadian Geographer*. – 1980. – Vol. 24, No. 1. – P. 5–12. – Elektron manba <https://www.ivysci.com/en/articles/1606467>
8. *The Samarkand Declaration on Silk Road Tourism*. – Elektron manba <https://webunwto.s3.eu-west-1.amazonaws.com/s3fs-public/2019-11/samarkanddeclaration1994new.pdf>
9. Ablayeva A. *Kazakistan Turizminde İpek Yolunun Yeri ve Önemi: Yüksek Lisans Tezi*. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi, 2013. – 37 s. – Elektron manba <https://nek.istanbul.edu.tr/ekos/TEZ/50653.pdf>
10. *Khiva Declaration on Tourism and the Preservation of the Cultural Heritage*. – Khiva, Republic of Uzbekistan, 21 April 1999. – Elektron manba https://pre-webunwto.s3.eu-west-1.amazonaws.com/s3fs-public/2019-11/bukharadeclaration2002.pdf?VersionId=IVjtHmKnGF51_YOCKG0CvjxJK62g_HdT
11. *The Bukhara Declaration on Silk Road Tourism*. Fourth International Meeting on the Silk Road. – Bukhara, Republic of Uzbekistan, 27 October 2002. – Elektron manba <https://www.ivysci.com/en/articles/1606467>.